

## AVTOMOBIL YO'LLARINI LOYIHALASHDA SHO'RLANGAN GRUNTLARNI YO'L POYIDA QO'LLASH

***Ikramova Feruza Xayrullayevna***

*Toshkent Davlat Transport Universiteti Avtomobil yo'llarini  
qidiruv va loyihalash kafedrasи dotsenti*

***Sanjarova Marjona Sanjar qizi***

*Toshkent Davlat Transport Universiteti YMSH-6 guruhi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turlicha ko'rinishdagi sho'rangan gruntlar haqida ma'lumotlar berilgan. Sho'rangan gruntlar Markaziy Osiyoning yo'gingachilk kam bo'ladigan tumanlarida tarqalgan. Sho'rangan grunlarning kimyoviy tarkibi turlicha ko'rinishda bo'lsada ular ma'lum qonuniyat asosida tashkil topganligi va boshqa me'yoriy hujjatlari tahlili qisqacha bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Sho'rangan gruntlar, suv qochirishni, turg'un yo'l poyi, o'ta sho'rangan gruntlar, yer osti suvlari, Sho'rangan miqdori

Markaziy Osiyoning 600 ming km<sup>2</sup> dan ortiqroq maydonini sho'rangan gruntlar egallagan. Sho'rangan grunlarning kelib chiqishi va ularga ta'sir etuvchi omillar turlariga qarab har xil ko'rinishda nomoyon bo'ladi. Shunday grunlarning ko'pchilik turlari quruq holda kuch ta'siriga chidamliligi bilan ajralib turadi, nam tegishi bilan bo'shashib mustahkamligini yo'qotadi.

Sho'rangan gruntlar pastqam yerdarda suvni qochirish qiyin bo'lgan joylarda tarqalgan. Kengligi 75-100 km va balandlik farqi 1.5-2.1 m maydondagi suv bosib yotgan yerdarda suv qochirish umuman qiyin bo'lib, bu holat sho'rangan grunlarni keltirib chiqaradi. Sug'oriladigan tumanlarda sho'rangan gruntlar ko'pincha yaxlit bo'lmay, bo'lak-bo'lak holda uchraydi. Bu hol ma'lum darajada suv qochirishni yengillashtiradi. Shunga qaramay yer osti suvlarining yaqin joylashishi va qish-bahor oylaridagi juda sho'r yuvishishlari yo'l poyini loyihalash va qurish ishlarini tubdan qiyinlashtiradi. Sho'rangan gruntlar suv qochirish qiyin joylarda va yog'ingarchilik vaqtida namlanib, kuch ta'siriga chidamsiz bo'lib qolganligi sababli ularni nam fasllarda yo'llarga ishlatib bo'lmaydi. Markaziy Osiyoning kata qismlarida talabga mos grunlarning, hattoki yirik qumliklarning kamligi turg'un yo'l poyini loyihalash va qurishda ancha qiyinchilkлага olib keladi. Lekin, hamma sho'rangan gruntlar yog'in ta'sirida yumshayvermasligi ham ma'lum. Masalan, qumli gruntlar va changsimon qum aralashgan lyossli grunlardan qurilgan yo'llar hatto yog'ingarchilik ko'p bo'ladigan yanvar-mart oylarida ham harakatni bemalol ta'minlab beradi. Sug'oriladigan tumanlarning yog'ingarchilik oz bo'ladigan maydonlaridagi yengil changsimon qumloq yo'llarda yil davomida yurish mumkin. Changsimon qumloq

gruntlardan tashkil topgan sho'rlangan gruntlarga qum qo'shilsa, uning yuk ko'tarish qobiliyati ortadi. Shu imkoniyat Markaziy Osiyoning sho'rlangan gruntlarida loyihalanadigan va quriladigan yo'llariga nihoyatda zarurdir.

Yo'l poyidagi grunt namligining fasl o'zgarishiga qarab o'zgarib turishi turli joylarda turlichadir. Yaxshi zichlangan va ko'p sho'rlangan gruntlarda namlik kam o'zgarishi kuzatiladi.

Sho'rlangan gruntli maydonlar suvda eriydigan tuzlarning yuqori konsentratli manbai hisoblanadi. Tuzlari momiq bo'lib ko'rinvchi sho'rlangan gruntlardan avtomobil yo'llarini loyihalash va qurish uchun joyning iqlimi gruntning xossalari, yerosti suvining tartibini, zamin qatlami tuzilishini va suvda eriydigan tuzlarning miqdorini va muhit sharoitini sinchiklab o'rganishni talab etadi. Yo'l yo'nalishini tanlashda uning o'zgarishiga sho'rlangan gruntning ta'siridan qat'iy nazar, bunday joylarni aylanib o'tish lozim.

Turlicha ko'rinishdagi sho'rlangan gruntli maydonlar Markaziy Osiyoning yo'gingachilk kam bo'ladigan tumanlarida tarqalgan. Sho'rlangan gruntlarning kimyoviy tarkibi turlicha ko'rinishda bo'lsada ular ma'lum qonuniyat asosida tashkil topgandir.

Qurg'oqchilik maydonlarining 23% ini xlorid tuzli, 62% ini sulfat-xloridli va 15% ini xlorid-sulfatli sho'rlangan gruntlar tashkil etadi. Bunday tuproqlarning yo'l poyi uchun eng maqbulini aniqlash uchun suvda eruvchan tuzlarning yil davomidagi o'zgarishini bilish zarur. Ma'lum bo'lishicha suvda eriydigan tuzlarning eng ko'p to'planishi iyul-avgust oylariga to'g'ri kelar ekan. Sug'oriladigan tumanlarda grunt tuzlarining harakat qonuniyati birmuncha o'zgarib avgust-sentabr oylarida yuqori ko'rsatkichga ega bo'ladi. O'ta sho'rlangan gruntlarda suvda eriydigan tuzlarning eng ko'p yig'ilishi sentabr-oktabr oylariga to'g'ri keladi.

Yo'l poyini loyihalashdan avval yilning turli vaqtlarida gruntda tez eriydigan tuzlarning tarqalishini bilish zarur. Yengil eriydigan tuzlar, asosan yer qatlaming 1,0 m gacha bo'lgan chuqurligida tarqalgan bo'ladi.

Tuzlar past haroratda kam eruvchan xossaga ega bo'lganligi uchun ko'pincha yerning qatlam yuzasida qoladi. Tuz yig'ilishiga asosiy manba yer osti suvlari hisoblanadi. Yer osti suvlari sayoz holda turib qolishi sharoitlarida ildiz o'sgan qatlamning sho'rlanishidan saqlash choralar, ya'ni sho'r yuvish ishlari, suv qochirgich inshotlarining sifatli ishlashini va yer osti suvini kerakli chuqurlikda joylashishini ta'minlovchi tadbirlar amalga oshiriladi.

Gruntning tuzlanganlik darajasini aniqlash uchun havo quruq vaqtda gruntdan na'munalar olib tekshiriladi. Na'munalar yer yuzasidan 0.23-0.35 m chuqurdan olinadi. Agar na'muna olish vaqt yo'g'ngarchilik davriga to'g'ri kelib qolsa, unda na'muna olinadigan chuqurlik 0,3-0,6 m oralig'ida bo'lishi lozim.

Gruntdagi tuz miqdori yo‘l poyiga ishlatiladigan grunt tarkibidagi suvda eriydigan tuzlarning o‘rtacha qiymati bilan belgilanadi. Sho‘rlanish miqdori quruq grunt vaznining qay miqdorini tashkil qilishi foiz hisobida o‘lchanadi. Sho‘rlanish darajasi 100 g quruq gruntdagi milli ekvivalent miqdorda olingan CL ionlarining CO<sub>4</sub> ionlariga bo‘lgan nisbati bilan aniqlanadi (1-jadval).

1-jadval.

Tuzlanish holati	Nisbati
Xloridli	2.5
Sulfat-xloridli	2.5-1.5
Xlorid sulfatli	1.5-1.0
Sulfatli	1
Sodali	-

Sho‘rlangan gruntlardan yo‘l poyini uchun foydalanishdan avval gruntd tez eriydigan tuzlar bilan qay darajada tuzlanganligi tekshiriladi (2-jadval).

2- jadval.

Tuzlanish darajasi	Gruntlarning yaroqliligi
Oz miqdorda	Yaroqli
O‘rtacha	-
Ko‘p	Qo‘srimcha tadbir-choralar bilan yaroqli
Yuqori	Yaroqsiz

O‘ta sho‘rlangan gruntlarni yo‘l qobig‘iga ishlatilganida qobiq turg‘unligini ta’minlovchi va ko‘tarmaning yuqori qismi sho‘rlanganligini ortishiga qarshi geosintetik materiallar va yer osti suvi sathini pasaytiruvchi choralar ko‘rish zarur. Yer osti suvlari yaqin joylashgan tumanlarda yo‘l poyini loyihalashda tuzi baland gruntlardan ham foydalansa bo‘ladi. Bunday holda yo‘l poyini ko‘tarish uchun maxsus tadbirlarni ko‘rish talab etiladi.

#### Adabiyotlar:

- Г.А. Федотов, П.И. Поспелов «Изыскания и проектирование автомобильных дорог». М АСАДЕМА. 2009 г.
- Н. Илёсов “Автомобиль йўлларини лойиҳалаш”. Т-“Ўзбекистон”-2001й.
- МШН 29-2007 Автомобиль йўллари пойини зичланганлик даражасини назорат қилиш бўйича йўриқномага қўшимча ва ўзгартиришлар.
- Икрамова Ф.Х. Место геоинформационных систем в проектировании автомобильных дорог// Проблемы науки № 6 (40), 2019 URL:

<https://cyberleninka.ru/article/n/mesto-geoinformatsionnyh-sistem-v-proektirovaniyu-avtomobilnyh-dorog>

5. F.X. Ikramova, Requirements for stepen densification of loess soils during the construction of the roadbed // Web of Scientist: International Scientific Research Journal ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 4, 895-897 pp., 2022/4/25 URL: <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/1334>

6. Ikramova Feruza Xayrullayevna, Assessment of traffic noise level// Academicia Globe: Inderscience Research, 2022-01-31 36–38. URL: <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/E649T>

7. Махмудова Д.А., Икрамова Ф.Х., Укрепление земляного полотна с помощью инновационных материалов на основе базальта // Universum: технические науки. 2020. №12-2 (81). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ukreplenie-zemlyanogo-polotna-s-pomoschyu-innovatsionnyh-materialov-na-osnove-bazalta>(дата обращения: 15.04.2022).

8. Икрамова Феруза Хайруллаевна, & Одилова Ёрқиной Дониёр қизи. (2023). ТРЕБОВАНИЯ К УСТОЙЧИВОСТИ ЗЕМЛЯНОГО ПОЛОТНА АВТОМОБИЛЬНЫХ ДОРОГ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(9), 1219-1222. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/7440>

9. Икрамова Ф.Х. Web of Scientist: International Scientific Research Journal [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=YOnn9VsAAAAJ&citation\\_for\\_view=YOnn9VsAAAAJ:9yKSN-GCB0IC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=YOnn9VsAAAAJ&citation_for_view=YOnn9VsAAAAJ:9yKSN-GCB0IC)(дата обращения: 19.12.2022).